

EPIK ASARNING SPETSIFIK XUSUSIYATLARI

Norsafarova Nilufar Boybo'ri qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada epik turning o'ziga xos spetsifik xususiyatlari, epik asar o'zagi, uning plastik hamda noplastik elementlari, "nasriy asar" va "epik asar" tushunchalari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *epik asar, spetsifik xususiyat, janr, plastik, noplastik, nasr, elementlar, voqea, makon, zamon, imkoniyat, tasvir, reallik.*

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF AN EPIC WORK

Norsafarova is the daughter of Nilufar Boybori

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Uzbek language and literature, 1st stage student

Abstract: *This article discusses the specific characteristics of the epic genre, the core of the epic work, its plastic and non-plastic elements, the concepts of "prose work" and "epic work".*

Key words: *epic work, specific feature, genre, plastic, non-plastic, prose, elements, event, space, time, opportunity, image, reality.*

ОСОБЕННОСТИ ЭПИЧЕСКОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Норсафарова дочь Нилуфар Бойбори

*Шахрисабзский государственный педагогический институт,
узбекский язык и литература, 1 ступень*

Абстрактный: *В данной статье рассматриваются специфические характеристики эпического жанра, ядро эпического произведения, его пластические и непластические элементы, понятия «прозаическое произведение» и «эпическое произведение».*

Ключевые слова: *эпическое произведение, специфика, жанр, пластика, непластичность, проза, стихия, событие, пространство, время, возможность, образ, реальность.*

KIRISH

Epik asarning spetsifik xususiyati haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, spetsifik, adabiy tur, epika, epik asar tushunchalariga e'tibor qaratamiz.

Spetsifik - biror bir kimsa yoki narsaning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi, faqat bir kishi, narsa yoki hodisaning o'zi uchungina xarakterli bo'lgan xususiyat [1] sanaladi.

Adabiy turlar atamasiga keladigan bo'lsak, "Adabiy tur nima? Arsitotelning" Poetika" asari yaratilgandan buyon adabiyot asarlarini uch katta guruhga bo'lish ilmda qoida bo'lib qolgan. Bu guruhlarning har biri hozirgi zamon adabiyotshunosligida "adabiy tur" yoki "adabiy jins" deb ataladi. Bu uch tur epos, lirika va dramadir. Hozirgi zamon o'zbek tilida epos - "nasr", lirika esa "she'riyat" ("poeziya") so'zlari bilan ham ifoda etiladi.

Butun san'at va adabiyotni "tabiatdan nusxa ko'chirish" yoki "tabiatga taqlid", deb tushungan Aristotel, "bu nusxa ko'chirishning uch yo'l bilan amalga oshuvini" Poetika"ning uchinchi bobida maxsus qayd etadi.

"Taqlid etuvchi", ya'ni san'atkor hayotni, voqeani go'yo tashqaridan mushohada qiluvchi tarzida "xuddi Homerdek, voqeani uning o'zidan, ya'ni taqlidchidan ajralgan bir narsa sifatida" tasvirlashi mumkin. Bu xolis obyektiv tasvir natijasida epos (epik tur) yaratiladi. [2]

Demak, epik asar xolis obyektiv tasvir natijasi bo'lsa, epik asarda tasvirlangan hayot bo'lib o'tgan voqealar haqida taassurot qoldiradi (hozirgi zamon, bugungi kun haqida yozilgan epik asarda ham tasvir etilgan voqeani biz kecha bo'lib o'tgan voqeadek fahmlaymiz). [3]

Epik turning spetsifik xususiyatlari haqida gap ketganda, avvalo, voqebandlik tilga olinadi. Darhaqiqat, epik asarda makon va zamonda kechuvchi voqea - hodisalar tasvirlanadi, so'z vositasida o'quvchi tasavvurida reallik kartinalariga monand jonlana oladigan to'laqonli badiiy voqelik yaratiladi. Tasavvurda reallikdagi monand, o'zining tashqi shakli bilan jonlangani uchun ham epik asardagi badiiy voqelikni "plastik" tasvirlangan deb aytiladi. Epik asarda plastik elementlar bilan bir qatorda noplastik elementlar ham mavjud bo'lib, bu elementlar muallif obrazini tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Epik asarning noplastik elementlari deyilganda muallifning mushohadalari, fikrlari, tasvir predmetiga hissiy munosabati kabilar tushuniladi. [4]

Epik asarning spetsifik xususiyatlaridan yana biri shuki, bu turga oid asarlar asosan nasriy yo'lda yoziladi. Ba'zan lirik asarlar ham nasriy yo'lda yaratiladi. Bundan yaqqol ko'rinib turibdiki, "nasriy asar" hamda "epik asar" tushunchalari ikki xil ma'noni kasb etadi.

Hikoya, qissa va roman eposning asosiy janrlari sanaladi. Shu bilan birga epik turning asosiy bo'lmagan qator janrlari ham mavjud. Ularni hayotni badiiy qamrash ko'lami jihatidan quyidagi tartibda tasniflash mumkin :

1. kichik epik shakllar: latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, esse;

2. o'rta epik shakllar: qissa (povest) ;

3. katta epik shakllar: epos, epik doston, roman, epopeya. [5]

Bunday turga mansub bo'lgan asarlar boshqa turga oid asarlardan farqli o'laroq o'zining xususiyatlariga ega bo'ladi. Masalan, poeziya ma'naviy olamni aniq obrazlarda uyushtiradi, ichki kechinma hamda hissiyotlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Drama esa sahnalar uchun mo'ljallab yoziladigan asarlar majmuasi hisoblanadi.

"Epik tur (epos) ga mansub asarlarning uch xususiyatini alohida qayd etish mumkin. Bular - tasvirning obyektivligi, voqebandligi, ko'lamdorligidir.

Eposga mansub har bir asarda yozuvchi hayot manzarasini go'yo tashqaridan turib tasvir etayotgandek yo'l tutadi.

Epik asarning ikkinchi muhim xususiyati voqebandligi, ya'ni asar asosida muayyan voqea haqidagi hikoya yotishini "Illiada", "Odisseya", "Shohnoma" va "Alpomish" dan tortib,

o'zbek romannavislari (A. Qodiriy, Cho'lpon, Oybek va boshqalar) ijodidan payqab olish mumkin. Hamma epik asarlarda kishilarning, ayniqsa, bosh qahramonlarning qiziqarli va mazmundor hayot yo'li, ular boshidan o'tgan voqealar hikoya qilinadi va eng yaxshi romanlarda muallifning g'oyaviy-estetik niyati, dastlab shu voqealar tizmasi tasviri orqali ifodalanadi. [6]

Ya'ni epik asarlarda muallif hayot voqealari ustidan estetik hukm chiqaradi. Hayot voqealarini keng ko'lmada qamraydi.

Epik asarda obrazlar sistemasi alohida ahamiyat kasb etadi. Asarning mazmuni aynan obrazlarning bir-biri bilan mazmuniy munosabati asosiga ochib beriladi.

Epik asarlarda voqea - hodisalarni hikoya qiluvchi shaxs hikoyachi yoxud roviy deb yuritiladi.

Asarda rivoya ko'pincha muallif tilidan, ba'zan esa personajlardan birining tilidan olib boriladi.

Masalan, Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasida rivoya muallif tilidan olib borilsa, Turob To'laning "Do'nan" hikoyasida ushbu holat qahramon (Baxshilla) tilidan olib boriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, epik asarning spetsifik xususiyatlari deganda voqebandlik, obyektivlik hamda ko'lamdorlik tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. "O'zbek tilining izohli lug'ati" A. Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
2. Izzat Sulon, Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyot - matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2005. 153-bet.
3. Izzat Sulon, Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyot - matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2005. 155-bet.
4. E. Xudoyberganov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent - 2004. 174-bet.
5. E. Xudoyberganov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent - 2004. 179-bet.
6. Izzat Sulon. Adabiyot nazariyasi. "O'qituvchi" nashriyot - matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2005. 162-163-betlar.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi.